



NUQTAYI NAZAR

YOSHLAR VA SAYLOV

Saylov — mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotidagi eng muhim siyosiy jarayon. Unda aholi, ayniqsa, yoshlarning faol ishtiroki mamlakatning kelajak taraqqiyotini belgilovchi yuksak mezon sanaladi. Zero, jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy faollik demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, ochiqlik, oshkoralikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishishning asosidir. Shu bois, taraqqiyotning yuksak cho'qqilarini ko'zlagan har bir davlat ertangi kun egalarining bu jarayondagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, intilishlarini ro'yogga chiqarish, faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratadi.

Davomi 2-betda

2023
9-IYULO'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Maxmudovanning saylovoldi tashviqoti bo'yicha maqola chop etilmoqda. Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

3-betga qarang.



MUNOSABAT

FAROVONLIK
HOLATIGA ERISHISHHAM RUH, HAM TANA QUVVATINI ASRASH
IMKONINI BERADI

Inson salomatligi dolzarb muammolardan biriga aylanib borayotgan bugungi davrda ruhiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan hayotiy qadriyat va yo'nalishlarni shakllantirish dolzarb vazifadir. Zero, ruhiy muvozanatga erishish ham ruh, ham tana salomatligini asrash imkonini beradi.

"Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori bu borada o'z vaqtida qabul qilangani bilan ahamiyatlidir. Ushbu hujjat bilan aholi ruhiy salomatligini muhofaza qilish

xizmatini tubdan takomillashtirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan psixiatriya va narkologiya yordami ko'rsatishning yagona vertikal boshqaruv tizimini joriy etish belgilandi.

Davomi 2-betda



QAROR VA IJRO

Raqamli irrigatsiya
OMMALASHAYOTGAN
TAJRIBA

Sherbek Rustamov o'n yildirki dalada mehnat qiladi. "Xoliqov Sardor Saydaliyevich" fermer xo'jaligi tashkil etib, ish boshlaganidan buyon Mirishkor tumanida ilg'orlikni ko'ldan bergani yo'q. Bu yil ham 50 gektar maydonga g'alla ekib, shartnomaviy rejeni ortig'i bilan bajardi. 44 gektarga ekilgan paxta allaqachon gulga kirgan.



Doimo yangilikka intilib ishlashni o'rganagan Sherbek aka qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda o'tgan yildan boshlab tomchilatib sug'orishdan foydalanishni o'z dalasida qo'lladi. Natija ancha yaxshiligini amalda ko'rgach, bu usuldan joriy yil ham foydalanishni maqsad qilib, ishini boshlab yubordi.

— O'tgan yili bankdan 575 million so'm imtiyozli kredit hamda davlatdan 92 million so'mlik subsidiya berilishi natijasida 23 gektar paxta maydoniga tomchilatib sug'orish texnologiyasini o'rnatgandik, — deydi Sherbek Rustamov. — Natija biz kutganimizdan ham ancha yaxshi bo'ldi. Vaqt ham, mablag' ham tejallishini angdiki. Shu sabab, joriy yilda paxta dala-mizga yanada ko'proq tomchilatib sug'orishni tashkil qilishni rejalashtiryapmiz. Fermer tomchilatib sug'orish usuli orqali o'tgan yili paxta hosildan yaxshigina daromad

topdi. Bu yil ekan 44 gektar paxtasining deyarli sakson foizini tomchilatish usulida sug'orishni yo'lga qo'yomqda. Hozirdanoq hech ikkilanmasdan paxta shartnomaviy rejasini ortig'i bilan bajarishini ta'kidlayapti. Hosil unumdorligi uchun bu yaxshi usul ekanini qo'shni fermerlarga ham tavsiya etib kelmoqda.

Keyingi yillarda global muammoga aylanib borayotgan suv tanqisligi dunyoning ko'pgina davlatlarida qayd etilayotgani sir emas. Bu esa bevosita suvni tejash, undan unumli foydalanishni talab etmoqda. Shu bois, so'nggi yillarda, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun suv tejovchi texnologiyalar amaliyotga kirib keldi. Natijada tomchilatib, yomg'irilatib sug'orish, lazerli tekislash kabi samarali usullardan foydalanish boshlab yuborildi.

Davomi 2-betda



XALQARO ANJUMAN

TA'LIMDAGI YANGILANISHLAR
yuksalish yo'lidagi marralarga yetaklamoqda

Shu kunlarda poytaxtimizda "Yangi O'zbekiston: taraqqiyot, innovatsiya va ma'rifat" mavzusida xalqaro sheriklik tashabbuslari haftaligi bo'lib o'tmoqda. Haftalik doirasida tashkil etilgan "O'zbekiston — sog'lom va bilimli jamiyat" xalqaro konferensiyasi mamlakatimizda inson kapitali, uning shakllanishi va rivojlanishida ta'lim-tarbiyaning o'rni mavzusiga bag'ishlandi. Anjumanda ta'lim tizimini isloh qilishning zamonaviy tendensiyalari, jahon tajribasini o'rgangan holda ularni amaliyotga tatbiq etish va uning samarasi borasida fikr almashildi. Keng jamoatchilik yurtimizda ta'lim, ilm-fan sohasida kechayotgan islohotlar bilan tanishtirildi.

Davomi 5-betda



HAMKORLIK

SAMARADORLIK, O'ZARO BIR-BIRINI TUSHUNISH
VA AMALIY SA'Y-HARAKATLAR NAMOIYISHI

Joriy yil 4-iyul kuni Hindiston raisligida SHHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining videoanjuan shaklidagi navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisdan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi, ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Shu o'rinda SHHT o'zining 22 yillik faoliyati davomida mintaqaviy masalalarni hal qilishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishganini ta'kidlash kerak. Qayd etish joizki, SHHTni tashkil etish to'g'risidagi Deklaratsiyaga muvofiq, Tashkilot boshqa davlatlar va mintaqalarga qarshi qaratilgan ittifoq emas.

U ochiqlik tamoyiliga amal qiladi.

SHHT boshqa davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan tinchlik va umuminsoniy qadriyatlar ruhida mu-loqot hamda hamkorlikni rivojlantirishga tayyor bo'lib, mana shu tamoyil uni xalqaro munosabatlarda nufuzli tuzilmaga aylantirdi.

Shu bilan birga, Tashkilot a'zolari o'rtasida teng huquqli hamkorlik o'rnatilgan. Bu esa SHHT jozibadorligini yanada oshirmoqda. Unga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlar, muloqot bo'yicha hamkor davlatlar soni ko'payib, Tashkilotga ishonch ortmoqda.

Davomi 4-betda



NUQTAYI NAZAR

YOSHLAR VA SAYLOV

Islomiddin ABROROV,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda so'nggi yillarda taraqqiyot va yuksalishga erishishda navqiron avlod salohiyatidan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2016-yil 14-sentabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu qonun yillar davomida mavhum bo'lib kelgan huquqiy tushunchalarga aniqlik kiritish bilan birga yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil bo'ldi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq qator vazifalar belgilangan va ular izchil hayotga tatbiq etilyapti. Shu kunlarda mamlakatimizda kechayotgan muhim siyosiy jarayon — mudatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ham aholi, xususan, yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash diqqat-e'tibordir.

Saylov davlat hokimiyati organlarining davriylik prinsipiga binoan almashib turishga, ularni xalq va jamiyat oldida hisobdorlik asosida ishlash tartib-taomillariga rioya qilishga muttasil undab turadigan yagona mexanizmdir. Gap ana shu mexanizmdan, imkoniyatdan samarali foydalanishda.

Bu saylovchilarning huquqiy ongi, bilim va madaniyatining nechog'liq yuksakligiga, yoshlarda xalq va vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi barqarorligiga ham bog'liq. Chunki ovoz berish fuqarolik ishtirokining fundamental aktlaridan bo'lib, uning vositasida yoshlar demokratiyaga o'z hissasini qo'shadi. Shu bois, saylov yoshlarga o'z ovozi,

pozitsiyasini eshittirishga imkon beradi, jamiyatdagi muammolarni yechish uchun e'tibor qaratish omili bo'ladi. Bunday vazifalarning bir qancha strategik yo'nalishlari va metodlari bo'lib, ular ichida saylov qonunchiligi targ'iboti va yoshlar vakillari o'rtasidagi o'tkaziladigan ochiq muloqotlar alohida ajralib turadi. Aynan shunday uslublarning keng qo'llanilishi yoshlarda, avvalo, faol fuqarolik pozitsiyani shakllantiradi va konstitutsiyaviy huquqini anglab yetishiga zamin bo'ladi.

Umuman olganda, xalqaro tajribada saylov nafaqat turli bo'g'inlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarga boy tarzda tashkil qilinadi, balki ularning huquqiy asoslari yaratilishiga ham keng ahamiyat qaratiladi. Saylovga puxta tayyorgarlik ko'rish va uni umum-e'tirof etilgan xalqaro tamoyillar asosida o'tkazish uchun saylov jarayoni ishtirokchilarining milliy saylov qonunchiligi va xalqaro saylov standartlari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirishga yangicha yondashiladi. Saylov huquqi, saylovni yuqori saviyada o'tkazish jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari, saylov jarayonida ko'ngillilar bilan ishlashning huquqiy asoslari va zamonaviy uslublari, saylovda yoshlarning ishtiroki va uni samarali tashkil etish tizimi kabi mavzularda o'tkaziladigan tadbirlar ularning ijtimoiy-siyosiy faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda keyingi yillarda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanmoqda. Aholi, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy faolligi o'sib, ongu tafakkuri yuksalmoqda. Demokratik islohotlarga daxldorlik hissi kuchayib, fuqarolik pozitsiyasi qaror topayotgan bir sharoitda volon'tyorlik institutini rivojlantirish va ushbu faoliyatga yoshlarni yanada kengroq jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, fuqarolik jamiyatining o'ziga xos va muhim tarkibiy qismi, uning rivojlanganlik ko'rsatkichi bo'lib xizmat

qiladigan ushbu institut yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiribgina qolmay, ijtimoiy-siyosiy ishlar, tadbirlar o'tkazish bilan bog'liq muhim ko'nikmalarni ham hosil qiladi. Bu isbotini topgan haqiqat. Xalqaro tajribada yoshlar tashkilotlari ko'plab siyosiy tadbirlarga jalb qilinadi va ularning bilim va ko'nikmalaridan, innovatsion g'oyalardan siyosiy, ijtimoiy tadbirlar yo'lida keng foydalaniladi. Mamlakatimizda ham xorijiy davlatlardagi kabi volon'tyorlik institutidan turli milliy va xalqaro tadbirlarni o'tkazishda keng foydalanilayotganini alohida e'tirof etish joiz.

Bugun insoniyat o'z taraqqiyotining butunlay yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Chunki hamma erkin, farovon va to'kis demokratik mamlakatda yashashni orzu qiladi. Lekin faqat orzuning o'zi yetarli emas. Maqsadga erishish, farovon va erkin hayotni qo'lga kiritish uchun faol harakat qilish, o'qish, o'rganish, intilish, eng muhimi, o'z kelajagiga befarq bo'lmaslik kerakligi yoshlarning ongu shuuriga chuqur o'rtnashgandagina davlat va jamiyat taraqqiyoti amalga oshadi.

Buning uchun esa yoshlar doimiy ravishda zaruriy huquqiy-siyosiy bilimlar bilan qurollanishi, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi muhim. Shundagina mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohalaridagi keng qamrovli islohotlarning samarasi va ta'sirchanligi yanada oshadi. Bilimli, faol, tashabbuskor yoshlar esa ushbu islohotlar bardavom bo'lishida va taraqqiyotning yuksak bosqichlariga erishishda yetakchi harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.



MUNOSABAT

FAROVONLIK HOLATIGA ERISHISH

HAM RUH, HAM TANA QUVVATINI ASRASH IMKONINI BERADI

Zumrad BEKATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Qarorda birlamchi bo'g'in tibbiyot muassasalariga ruhiy salomatlikni muhofaza qilish xizmatlarini integratsiya qilish, ruhiy holati buzilgan shaxslarni dori vositalari bilan ehtiyojga ko'ra to'liq ta'minlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, aholi, ayniqsa, bolalar va o'smirlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, mutaxassislarni munosib rag'batlantirish va samarali mehnati uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, psixiatriya muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlashga qaratilgan qator vazifalar belgilab berildi.

Endilikda Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga aylantirilib, faoliyati qayta tashkil etiladi. Tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida tibbiy psixolog, statsionar o'ringa ega bo'lmagan ruhiy-asab kasalliklari dispanserlari va tarkibida dispanser mavjud bo'lgan ruhiy kasalliklar shifoxonalarida suitsidolog, statsionar o'ringa ega bo'lgan ruhiy-asab kasalliklari dispanserlari va ruhiy kasalliklar shifoxonalarida suitsidolog, statsionar o'ringa ega bo'lgan ruhiy-asab kasalliklari dispanserlari joriy etiladigan va xodimlar ruhiy holati buzilgan shaxslarni aniqlash va ular bilan ishlash bo'yicha o'qitiladigan bo'ldi.

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida o'quvchilarda o'zini o'zi boshqarish, murakkab hayotiy vaziyatlarni yengib o'tish ko'nikmasini shakllantirish, depressiya, xavotirli holatlar va suitsidlarning oldini olish bo'yicha maxsus ijtimoiy-emotsional o'quv soatlarini (Social Emotional Learning, SEL) umumiy o'rta

ta'lim muassasalarida o'qitish yo'lga qo'yiladi.

Sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni yanada yaxshilash borasida xodim "psixiatriya", "sud psixiatriyasi", "tibbiy psixologiya" va "narkologiya" yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlov, "Psixiatriya", "Tibbiy psixologiya" va "Narkologiya" klinik ordinatura va magistratura mutaxassisliklariga o'qishi, ushbu yo'nalishlar bo'yicha nufuzli xorijiy tibbiyot muassasalarida hamda markazlarida malaka oshirish va stajirovka o'tashi tashkil etiladi. Shuningdek, davlat tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixiatr, tibbiy psixolog, psixoterapevt hamda suitsidologlarning lavozim maoshiga ustama miqdori 25 foizdan 50 foizga oshirildi.

Ruhiy holati buzilgan shaxslar ambulator sharoitda davolanishi uchun ularni imtiyozli asosda dori vositalari bilan ta'minlashga 2023-yilda qo'shimcha 10 milliard so'm mablag' ajratilib, keyingi yillarda davlat byudjeti parametrlarida mablag'lar nazarda tutilishi belgilab qo'yildi. Bu esa, tibbiyot muassasalarini, shu jumladan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini ruhiy holati buzilgan shaxslarni davolash uchun dori vositalari bilan ehtiyojga ko'ra, to'liq ta'minlash imkonini beradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ruhiy holat buzilishlari va nevrologik buzilishlar, shuningdek, psixofaol moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq buzilishlarda yordam ko'rsatish bo'yicha harakatlar dasturi (Mental Health Gap Action Programme) amalga oshiriladi. Mutasaddi vazirlik va idoralar tizimida faoliyat yurituvchi psixologlar, ilmiy doiralar va fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat ruhiy salomatlikni muhofaza qilish masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashi tashkil etilib, ular tomonidan ushbu sohada muammoli masalalarni muhokama qilish, psixologlar faoliyatini samarali tashkil etishga ko'maklashish, sohaga

zamonaviy texnologiya va usullarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, psixiatriya va narkologiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning faoliyatini raqamlashtirishni jadallashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorligini kuchaytirish, psixiatriya yo'nalishi bo'yicha davolash standartlari va klinik bayonnomalarni qayta ko'rib chiqish belgilangan. Markazda ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari faoliyatini yo'lga qo'yish, ruhiy holat buzilishlari, ularning boshlang'ich alomatlari hamda o'z vaqtida davolanmaslikning salbiy oqibatlari to'g'risida aholining xabardorlik darajasini oshirish borasida vazifalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari ham aniq belgilab qo'yildi. Bunday sa'y-harakatlar, albatta, ruhiy holati buzilgan shaxslarni erta aniqlash, davolanishini tashkil etish va ruhiy holati buzilishi natijasida kelib chiqadigan noxush holatlarning oldini olish uchun zamin yaratadi.

Ushbu hujjat ijrosi aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish, ruhiy holat buzilishlarini erta aniqlash, ularga tashxis qo'yish, davolash sifatini oshirish, sohada samarali boshqaruv tizimini joriy etishga zamin yaratadi. Bu borada ilm-fanni rivojlantirish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish va psixiatriya muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, aholiga o'z vaqtida psixiatriya yordami ko'rsatilishini tashkil etishga xizmat qiladi.

"Ruhiy salomatlik" tushunchasi, bu — inson o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, hayotning normal stresslariga dosh bera olishi, sifatlari va samarali mehnat qilishi, shuningdek, jamiyatda o'z hissasini qo'shishi mumkin bo'lgan farovonlik holati sifatida tavsiflanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur qarorda belgilangan vazifalar o'z vaqtida ijro etilishi aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiy xizmat sifatini oshirishda muhim qadam bo'ladi.



QAROR VA IJRO

Raqamli irrigatsiya OMMALASHAYOTGAN TAJRIBA

Boshlanishi 1-betda

Ma'lumki, Qashqadaryo mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yetakchi viloyatlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda vohada qishloq xo'jaligi ekinlari uchun 75 foiz suv Amudaryo dar-yosidan Qarshi magistral kanalidagi 7 ta ko'tarmali nasos stansiyalar kaskadidagi 45 ta nasos stansiyasidan, 5 foiz suv Zarafshon daryosi orqali tranzit tarzda va qolgan 20 foizi Qashqadaryo va uning irmoqlari, tik sug'orish quduqlari, nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi hisobidagi 62 ta nasos stansiyasi hamda 2,5 milliard kub metr suv yig'adigan 13 ta suv omboridan olinadi.

Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'muriyati ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yilning bahor oylarida yog'ingarchilik kam bo'lgani, yozning o'ta issiq kelishi, suv resurslari har yilgidan 25-30 foizga tanqis bo'lishi viloyatda murakkab suv tanqisligi sharoitini keltirib chiqargan. Jumladan, suv ta'minotida asosiy hisoblangan 9 ta katta-kichik suv ombori sug'orish mavsumining o'zidayoq qurib qolganiga qaramasdan, iqtisodiyot tarmoqlari sug'orish ishlari, sanoat ehtiyotlari uchun yil davomida 4,34 milliard metr kub suv yetkazib berilgan.

Shundan qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun 4,36 milliard metr kub suv limiti ajratilib, amalda 4,07 milliard metr kub suv yetkazib berilgan. Suvni samarali boshqarish, suv tejaydigan texnologiyalar joriy etish, irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari o'z vaqtida o'tkazilishi natijasida esa 286 million metr kub suvni iqtisod qilishga erishilgan.

Shuningdek, suv tanqisligini yumshatish maqsadida kanallar tozalanib, 45 kilometr kanal betonlashtirilgan. Hidro-texnik inshoot va gidropostlar ta'mirlanib, tik quduqlarga hamda kollektorlarga dizel nasoslari o'rnatilib, yer osti, kollektor-zovurlardan 141 million metr kub qo'shimcha suv olingan.



qurilish-ta'mirlash tadbirlari yakunlanib, foydalanishga topshirildi. Buning natijasida 82 ming gektar maydonning suv ta'minoti va 31 ming gektar maydonning meliorativ holati yaxshilandi.

Amalga oshirilgan ishlar samarasi o'laroq, sho'rlangan maydonlarning ulushi ancha qisqardi. Muammoli bo'lgan sug'oriladigan yer maydonlari 5,1 ming gektardan 2,3 ming gektarga kamaytirildi.

Keyingi yillarda viloyatda suv xo'jaligida yangi yo'nalish — davlat-xususiy sheriklikni joriy etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, 2021-2022-yillarda davlat-xususiy sheriklikni joriy etish bo'yicha qiymati 28 milliard so'm bo'lgan o'ndan ortiq loyiha yuzasidan bitimlar imzolaniib, reyestrqa kiritilgan bo'lsa, buning natijasida jami 228 million so'mlik mablag' iqtisod qilindi.

Davlat-xususiy sheriklikka olingan obyektlarning modernizatsiyasi uchun xususiy sheriklar tomonidan 1,12 milliard so'mlik investitsiya kiritildi.

Joriy yilda esa ikkita loyiha asosida Qarshi tumanidagi "Qo'ng'irtog'" nasos stansiyasi va Kasbi tumanidagi "17-36-sonli" meliorativ quduq xususiy sektorga boshqaruvga berildi.



KEYINGI YILLARDA VILOYATDA SUV XO'JALIGIDA YANGI YO'NALISH — DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI JORIY ETISHGA ALOHIDA AHAMIYAT QARATILMOQDA. XUSUSAN, 2021-2022-YILLARDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI JORIY ETISH BO'YICHA QIYMATI 28 MILLIARD SO'M BO'LGAN O'NDAN ORTIQ LOYIHA YUZASIDAN BITIMLAR IMZOLANIB, REYESTRGA KIRITILGAN BO'LSA, BUNING NATIJASIDA JAMI 228 MILLION SO'MLIK MABLAG' IQTISOD QILINDI.

— Sohada ustuvor yo'nalishlardan yana biri suv xo'jaligini raqamlashtirishdir, — deydi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining bo'lim mutaxassisi Feruz Toshmurodov. — O'tgan yilda suv xo'jaligi obyektlariga olti yuzga yaqin zamonaviy abxoro-tkomunikatsiya texnologiyalari joriy etildi. Sug'orish tarmoqlarida uch yuzga yaqin "Smart Water", nasos stansiyalarida elektr energiyasi sarfini o'lchovchi hisoblagich va meliorativ kuzatuv quduqlarida sizot suvlari sathi, suvlarning mineralashganlik darajasini onlayn nazorat qilish uchun uch yuz dona "Diver" qurilmasi o'rnatilib, to'rt yuzdan ortiq qurilma vazirlik serverlari bilan integratsiya qilindi.

Kasbi tumani "Mirishkor-Qamashi" kanallaridagi 26 ta suv ajratish nuqtasini boshqaruv jarayoni Avstraliyaning "Rubicon water" kompaniyasi texnologiyasi asosida avtomatlashtirildi.

Darhaqiqat, o'tgan uch-to'rt yilda suv resurslarini samarali boshqarish, ularning hisobini zamonaviy texnologiyalar asosida yuritish hamda suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqarishga xususiy sektor daromadining bir qismini ajratishda vohada katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Natijada bu tajribani mamlakatimizda ommalashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-dekabrda "Qashqadaryo viloyati tajribasi asosida suv resurslarini

boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Shundan so'ng suv xo'jaligi obyektlarini klasterlar boshqaruviga berish yanada jadallashdi. Shu yil boshidan hozirga qadar klasterlarga bog'liq maydonga xizmat qiladigan 7,2 ming kilometr ichki sug'orish tarmoqlari, 5,1 ming kilometr kollektorlar dalolatnoma asosida klasterlar boshqaruviga berildi. Misol uchun, joriy yilda "Koson baxt tekstil" klasteriga Koson tumanidagi barcha suv xo'jaligi obyektlari, "Indorama agro" klasteriga Kasbi va Nishon tumanidagi suv xo'jaligi obyektlarini 30 yilga boshqaruvga berish bo'yicha loyiha hujjatlari tayyorlanmoqda.

Saudiya taraqqiyot jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida loyiha qiymati 105,3 million dollar bo'lgan "Qarshi nasos stansiyalari kaskadini kapital qayta tiklash (FAZA-III)" xorijiy investitsiya loyihasi amalga oshirilayotgan bo'lib, joriy yil Saudiya taraqqiyot jamg'armasining 11,9 million dollarlik mablag'lari o'zlashtirildi.

Loyiha doirasida 9 dona nasos agregat, 200 komplekt yuqori kuchlanishli boshqaruv qurilmasi, 4 dona zemsarnayad, 12 dona maxsus texnika xarid qilindi, 2017-2023-yillarda amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida Amudaryoga bog'liq 402 ming gektar sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti yaxshilandi.

Tashabbuskorlarning mablag'lari hisobidan qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqqan sug'oriladigan, lalmi, adir maydonlardan 20,4 ming gektari o'zlashtirilib, kam ta'minlangan, "Temir daftar", "Yoshlar daftar"da gi fuqarolarga 50 soxtidan yer qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun ajratilmoqda.

Suvni ichki tarmoqlardan iste'molchilarga taqsimlash, uning kundalik hisobotini yuritish maqsadida suv xo'jaligi maxsus xizmat bo'limlari tomonidan yil davomida 3,4 milliard metr kub suv iste'molchilarga yetkazib berilyapti.

Eng muhimi, sohaga davlat-xususiy sheriklik hamda raqamlashtirish va suv tejovchi texnologiyalarning joriy etilishi natijasida dolzarb bo'lgan suv tanqisligining oldi olinishiga erishilmoqda. Suvning har tomchisidan unumli foydalanib, yuqori hosildorlik olinmoqda. Asosiy, harakatlar samarasini berib, belgilangan vazifalar o'z vaqtida bajarilmoqda.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



KUCHLI VA ADOLATLI JAMIYATGA IJTIMOIOY BIRDAMLIK ORQALI ERISHAMIZ

ADOLAT SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI

Insoniyat tarixi har qanday jamiyat uchun ijtimoiy adolat — barqaror rivojlanish kafolati bo‘lib xizmat qilishini isbotlab kelmoqda. Ijtimoiy adolat, eng avvalo, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi adolatli munosabatlar g‘oyasidir. Zero, ijtimoiy adolat, bu — siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e‘tiqodidan qat’i nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning o‘zaro tengligini ta‘minlashdir.

Dunyo tajribasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, ijtimoiy davlat o‘z siyosatida ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib faoliyat yuritadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa, jamiyatda yaratilayotgan moddiy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlash hamda ma‘naviy boyliklardan foydalanishda teng imkoniyatlarni yaratib berishdan iborat. Bu jarayonda har bir fuqaroning turmush sharoitini sifat jihatidan yuqori darajaga olib chiqish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan yordam ko‘rsatish ko‘zda tutiladi. Ya‘ni **ijtimoiy adolat — farovonlik darajasiga erishishda imkoniyatlar tengligi va ularning oqilona taqsimlanishi barobarida ijtimoiy imtiyozlar berish mezonlari bilan o‘lchanadi.**

Jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvorligiga erishish harakatlari XX asrning boshlarida Germaniya va Buyuk Britaniyada, keyinroq esa AQSHda boshlangan. Asr oxirlariga kelib esa bunday yondashuv Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya singari ko‘plab davlatlarda o‘z samarasini bera boshlagan.

Aynan shu sababli ham jahondagi sotsial-demokratik harakatlar faoliyatining asosiy tub mazmunida ijtimoiy davlatning yaratuvchanlik salohiyati yotadi. O‘z navbatida, bu tamoyil ko‘pgina davlatlarning konstitutsiyasi hamda qonunlarida aks etgan. Davlat tomonidan ijtimoiy kafolat esa iqtisodiyot va soliq siyosatini samarali amalga oshirish orqali ta‘minlanadi.

Xorijiy davlatlarda mazkur jarayon davlat va jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari tomonidan kuchli jamoatchilik nazorati asosida kuzatiladi. Shuningdek, jarayonning borishi, samaradorlik, vujudga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida aniqlash, zarur qarorlar qabul qilish uchun izchil monitoring va tahlil qilib borishning mustaqil tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Yuqorida keltirilgan xorij tajribasi mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi ilgari surayotgan g‘oyalar bilan hamohangdir. Xususan, partiyadan Prezidentlikka nomzod Robaxon Maxmudovanning Saylovoldi dasturida ham Vatanimiz taraqqiyoti yo‘lida demokratik huquqiy, ijtimoiy davlat va barcha uchun farovonlik ta‘minlangan adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning **sotsial-demokratik modeli** taklif etilmoqda.

Mazkur modelning asosiy qoidalari esa quyidagilardan iborat:

— inson, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari davlat va jamiyatning eng yuksak qadriyatlari ekanligini tan olib, jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida har bir insonning farovon hayoti uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligini ta‘minlash;

— O‘zbekistonning imkoniyatlar tengligi, adolatlilik, birdamlik, ijtimoiy himoya va mas‘uliyat tamoyillari hukmronlik qiladigan, insonlarning keskin tabaqalanishiga yo‘l qo‘yilmaydigan kuchli “ijtimoiy davlat” sifatida, aholining yuqori turmush darajasiga ega rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishiga erishish;

— xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai bo‘lishi haqidagi konstitutsiyaviy prinsip davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekanligini ta‘kidlab, xalq hokimiyatining yorqin timsoli bo‘lishi vakillik demokratiyasi institutining roli va ahamiyatini yanada oshirish;

— mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, jamiyatning innovatsion, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish va inson kapitalini rivojlantirish;

— har bir inson farovonligining garovi bo‘lgan tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash, fuqarolar totuvligi, millatlارaro va dinlararo bag‘rikenglikni mustahkamlash, har tomonlama muvozanatli, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib borish.

E‘tibor bersak, aholimiz **2040-yilga** borib **50 millionga** yetadi, jamiyatning **yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil qiladi**. Ularga munosib hayot sharoitlari yaratish uchun esa **barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat,**

samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo‘lishi lozim.

Mazkur voqeilikdan kelib chiqqan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida **“O‘zbekiston — ijtimoiy davlat”** tamoyili mustahkamlab qo‘yildi. Shu bilan bir qatorda, davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq normalar 3 barobarga ko‘paytirilib, ijtimoiy davlat modelini amalga oshirish mexanizmlari qat’iy belgilandi. Jumladan, Konstitutsiyada aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta‘minlash bo‘yicha davlatning majburiyatlari, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini ta‘minlash hisobga olinishi kabi ijobiy jihatlari o‘rin oldi.

Shu sababli nomzod Robaxon Maxmudovanning Saylovoldi dasturida mazkur sa‘y-harakatlarni yanada chuqurlashtirish, samaradorligini oshirish yuzasidan qator taklif-tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Jumladan, nomzod keng ko‘lamli dasturlarning amalga oshirilishini ta‘minlaydigan **kuchli ijtimoiy davlat siyosatini** qo‘llab-quvvatlagani holda o‘z Saylovoldi dasturida fuqarolarni **ijtimoiy himoya qilish**, bu yo‘nalishda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha **“Ijtimoiy davlat — 2030” dasturini** ishlab chiqish taklifini bermoqda.

Albatta, dunyo amaliyotidan ma‘lum, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi nafaqat muhtojlarga moddiy yordam berishga, balki aholining ko‘makka zarurati bor qatlamlarini kambag‘allikdan chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi muhim. Jumladan, **pensiya, nafaga va boshqa ijtimoiy yordamlar** miqdori eng kam iste‘mol xarajatlardan **oz bo‘lishi mumkin** emasligi konstitutsiyaviy darajada belgilab qo‘yildi.

Shubhasiz, ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvor bo‘lgan davlatni barpo etishda, birinchi navbatda ta‘lim, ilm-fan va innovatsiyaning ahamiyati juda katta.

Yangilangan Konstitutsiyamizning **52-moddasida davlat o‘qituvchilarning shodini va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy jihatdan farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi** haqidagi norma o‘z aksini topdi. Albatta, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan **685 mingdan ortiq o‘qituvchining** professional o‘sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlanishi kuchaytirilishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi va obro‘sinini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yurtimizda ta‘lim olish huquqi va imkoniyatini yanada kengaytirish uchun nomzodning Saylovoldi dasturida **o‘qituvchining obro‘-e‘tibori, bu — avvalo millatning, butun xalqning obro‘-e‘tibori** ekanini alohida qayd etib o‘tilgan. Shu bois, partiya pedagog xodimlarning obro‘-e‘tiborini oshirish hamda yuksak maqomini belgilash orqali ularning jamiyat hayotidagi rolini oshirishga qaratilgan tashkiliy choralarni ko‘rish tarafdori. Shu maqsadda **o‘qituvchi maqomiga oid qonunning tezroq qabul qilinishi** ustuvor masala sifatida belgilangan.

Ayni paytda Prezidentlikka nomzod o‘z Saylovoldi dasturida ta‘lim sohasida ilg‘or davlatlar tajribasi va milliy qadriyatlarimizga tayangan holda **maktablarda ta‘lim berishning amaldagi standartlarini takomillashtirish** hamda **maktab ta‘limini xalqaro ta‘lim dasturlari asosida izchil isloh qilish** g‘oyasini ham ilgari surmoqda.

Bu bejiz emas, chunki Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya, Shvetsiya va Finlyandiya singari ko‘plab mamlakatlar aynan o‘qituvchi mavqegini mustahkamlash, ularning jamiyatdagi obro‘-e‘tiborini oshirish orqali mamlakatlarining yuksak taraqqiyotiga, rivojlanishiga zamin yaratdi. Mazkur davlatlarda pedagog kadrlarning nufuzi va oylik maoshlari ham shunga yarasha ekanini sir emas.

Albatta, bugunning bolasi maktabga bog‘cha ta‘limini olib, ma‘lum tayyorgarlik va bilim bilan kelmoqda. Shu boisdan nomzod dasturida **bog‘chalarda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish** zarurligiga alohida e‘tibor qaratilgan. Ayniqsa, maktabgacha



va maktab ta‘limi mamlakat kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga egaligidan foydalanib, **barcha bog‘cha va maktablarga xodimlarni ishga olishni ochiq, shafqatli tanlov asosida tashkil qilishni** yo‘lga qo‘yish taklif etilmoqda.

Shubhasiz, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimida **sog‘liqni saqlash sohasi** alohida o‘rin tutadi. Zero, har qanday mamlakatning eng katta boyligi — xalqining salomatligi.

Shu bois, Prezidentlikka nomzod Robaxon Maxmudovanning Saylovoldi dasturida aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, xalq salomatligini avaylab-asrash masalalariga chuqur e‘tibor qaratilgan.

“ADOLAT” SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI AHOLIGA KAFOLATLI TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA VA DAVOLASH USULLARINI KENG JORIY QILISHNI DAVOM ETIRISH TARAFDORI. SHUNDAN KELIB CHIQQAN HOLDA NOMZODNING SAYLOVOLDI DASTURIDA HAM TIBBIYOT SOHASINI RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA YANADA ISLOH ETISH TAKLIF QILINMOQDA.

Hammamizga ayonki, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi aholiga kafolatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, zamonaviy texnologiya va davolash usullarini keng joriy qilishni davom ettirish tarafdori. Shundan kelib chiqqan holda nomzodning Saylovoldi dasturida ham tibbiyot sohasini rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yanada isloh etish taklif qilinmoqda.

Jumladan, dasturda **“aqlii tibbiyot” tizimini** shakllantirishning huquqiy asoslarini ishlab chiqib, **tibbiyot sohasiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni** kengaytirish g‘oyasi ilgari surilyapti.

Jahon tajribasidan ma‘lumki, “aqlii tibbiyot” aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish va axborot berishning avtomatlashtirilgan tizimi bo‘lib, sohaga texnologik yechimlarni joriy etish orqali mijozlar to‘g‘risida biotibbiy ma‘lumotlarning yagona platformasi yaratiladi. Tibbiy kartalarning tarmoqli tizimi joriy qilinadi, masofaviy diagnostika, internet va mobil ilovalar asosida xizmatlar ko‘rsatiladi. Tizim orqali virtual tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, virtual shifoxona xizmati, elektron retseptlar, telemetriya va simsiz aloqadan foydalangan holda tibbiy yordamini uyda olish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Bunday samarali tibbiy tizim hamda tibbiyot xodimlarini qonun yo‘li bilan har tomonlama himoya qilish jahonning qator rivojlangan davlatlarida, jumladan, Germaniya, Fransiya, AQSH va Isroilda amaliyotda keng qo‘llanilmoqda.

Zero, biz yigirma birinchi asrda, yuksak texnologiyalar davrida yashamoqdami. Endi fan-texnika yangiliklari, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari — hamma-hammasi aholi salomatligini ishonchli saqlash va himoya qilish uchun xizmat qilishi lozim. Bu jarayonda har bir xonadonga, har bir oilaga eng zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari kirib borishi qisqa muddat ichida o‘zining samarasini beradi, albatta.

Shu bois, nomzodning Saylovoldi dasturida sog‘liqni saqlash tizimini **ijtimoiy davlat tamoyiliga muvofiqlashtirgan holda “O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash kodeksi” loyihasini yanada ta-**

komillashtirish, unda, sog‘liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilish, aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo‘lishini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilishi lozim qayd etib o‘tilgan.

Dasturda davlat tomonidan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari ro‘yxati qayta shakllantirilib, ijtimoiy dorixonalarni rivojlantirish, og‘ir kasalliklarni to‘liq davlat tomonidan davolashni kafolatlash tizimini qo‘llab-quvvatlash lozimligiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, nomzodimiz o‘z dasturida farmatsevtika sohasini tartibga solish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni taklif etar ekan, bunday

tizim, eng birinchi navbatda, **farmatsevtika va tibbiyot xodimlari orasidagi yashirin kelishuvlarga hamda dorilar narxining asossiz oshirilishiga** chek qo‘yadi, deb hisoblaydi.

Dori-darmon, uning sifati va narxi bilan bog‘liq muammolarni ijtimoiy tarmoqlarda ham saylovchilarning tomonidan muhokama etiladigan mavzulardan biri hisoblanadi. Aytish lozimki, respublikada 2018-yilda 10 ming 764 dorixona faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 15 ming 799 taga yetgan, ya‘ni dorixonalar soni deyarli 40 foizga ortgan. Mamlakatda o‘rtacha 2320 aholiga bitta dorixona to‘g‘ri keladi.

Bu ko‘rsatkich xorijiy davlatlarga qiyoslanganda bitta dorixona Daniyada 18,5 ming, AQSHda 5,3 ming, Buyuk Britaniyada 4,96 ming, Germaniyada 3,97 ming, Turkiyada 3,36 ming aholiga to‘g‘ri keladi.

Ko‘rib turganimizdek, O‘zbekistonda ushbu ko‘rsatkich katta tafovutni tashkil qilib, dorixonalar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Ayni shu kabi jihatlardan kelib chiqqan holda nomzodning Saylovoldi dasturida bugungi kunimiz uchun o‘ta dolzarb bo‘lgan masala ham qamrab olingan. Ya‘ni **nodavlat tibbiyot tashkilotlarini tijorat tashkilotidan notijorat tashkilotiga o‘tkazish** bo‘yicha amaliy choralarni ko‘rish taklifi o‘rin olgan. Nomzod tibbiyot daromad olish manbaiga aylanmasligi tarafdori ekanini qayd etib o‘tgan. Masalaga bunday yondashuv kelajakda xalq manfaatli uchun xizmat qiladi, albatta.

Saylovoldi dasturida **tibbiyot xodimlarining maqomini alohida qonun bilan belgilash, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ularga nisbatan turli tazyiqlarning oldini olish** maqsadida qonunchiligimizni yanada takomillashtirish borasida taklif etilayotgan loyihalar tibbiyot borasida ko‘zlanayotgan taraqqiyot modelining ajralmas bir qismi deb, bemalol aytishimiz mumkin. Bu jarayonda tibbiyot sohasida **malaka oshirishning markazlashgan tizimini qayta ko‘rib chiqish, malaka oshirishni ixtisoslashgan markazlarda va viloyatlarda tashkil etish** takliflari ham ilgari surilmoqda.

Bugungi jamiyatimizda uchrab qolayotgan og‘riqli holatlardan biri, ya‘ni farmatsevtika va tibbiyot xodimlari orasidagi yashirin kelishuvlar ortidan bemorlarga haddan ziyod dorilar sotib olishga undash holatlari uchramoqda. Buning natijasida, **O‘zbekiston ko‘p antibiotiklar iste‘mol qilinadigan mamlakatlar qatoridan o‘rin olmoqda. Tibbiyot muassasalaridagi ko‘plab faoliyatga ochiqchasiqa farmatsevtika tashkilotlari tomonidan homiylik qilinishi** ham odatiy holga aylandi. Bunday holatlarga chek qo‘yish lozim. Zero, millat sog‘liqi va genofondi ham ayni shu masalalarga bevosita va bilvosita bog‘liq. Bu salbiy voqeikka munosabat nomzod dasturida o‘z ifodasini topgan e‘tiborga molik, albatta.

Tibbiyot sohasidagi bunday munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri manfaatlar to‘qnashuvidir va korruptsiyaviy holat, deb baholanishi lozim, deyiladi dasturda. Tibbiyotchilar va farmatsevtlar o‘rtasida noqonuniy muloqot to‘liq taqiqlanishi kerak, bunday muloqotlar va sovg‘alar uchun jazo muqarrar bo‘lishi, yangi dorilar va davolash uslublari faqat vazirlik tomonidan tushuntirilishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, Prezidentlikka nomzod Robaxon Maxmudovanning Saylovoldi dasturida **tibbiyot sohasidagi davlat xaridlari bo‘yicha alohida tartib belgilash** g‘oyasi ham ilgari surilmoqda.

Zero, shunday qilinsa, dorilarning yagona elektron bazasini yanada takomillashtirish orqali dori-darmonlarning noqonuniy aylanmasiga, farmatsevtika va tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi yashirin kelishuvlarga hamda dorilar narxining asossiz oshirilishiga chek qo‘yiladi.

Albatta, ham tibbiyotga, ham aholi sihat-salomatligiga aloqador bo‘lgan ekologiya, atrof-muhit muhofazasi masalalari nomzod e‘tiboridan chetda qolmagan. Dasturda alohida ta‘kidlanishicha, ekologik muammolarni hal etishda nomzod o‘z sa‘y-harakatlarini, birinchi navbatda, ushbu muammolarning iqtisodiy jihatlariga qaratadi. Barcha ekologik muammolarni va u bilan bog‘liq fuqarolar salomatligini himoya qilish masalalarini **faqat davlat budgetiga yuklash to‘g‘ri bo‘lmaydi**. Prezidentlikka nomzod **“Ekologiyani ifloslantiruvchi — kompensatsiya to‘lashi lozim”** degan tamoyil tarafdori.

Shular bilan bir qatorda nomzodning Saylovoldi dasturida sanoat ishlab chiqarishning va umuman, milliy iqtisodiyotning qon tomiri hisoblanmish yo‘l infratuzilmasini yaxshilashga, mavjud yo‘llarni ta‘mirlashga birlamchi e‘tibor qaratilgan. Jumladan, davlatning iqtisodiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan yalpi ichki mahsulotni adolati taqsimlashni ta‘minlaydigan huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish birlamchi vazifamiz, deb hisoblaydi.

Ayni paytda dasturda hududlar o‘rtasidagi bir xil iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, tuman va shaharlarni bir maromda rivojlantirish belgilangan. Bunda esa, bozor iqtisodiyoti sharoitida **aholining keskin tabaqalanishiga yo‘l qo‘ymaslikka** alohida e‘tibor qaratiladi. Ya‘ni **hududlarni bir maromda rivojlantirishda** davlat yo‘li, suv, gaz, elektr energiyasi kabi zarur masalalarga javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

Nomzod dasturida iqtisodiyotni inson manfaatlarini hisobga olgan holda modernizatsiya qilish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rishga chaqiradi. Jumladan, nomzod dasturida **“Raqamli iqtisodiyotda aholi bandligini ta‘minlash — 2030”** dasturini ishlab chiqish taklif etilmoqda.

Mamlakatimizning sanoat salohiyatini oshirish va hududlarni izchil rivojlantirishda kichik sanoat zonalarini muhimligini inobatga olib, mazkur sohaning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida **“Kichik sanoat zonalarini to‘g‘risida”** qonun qabul qilish g‘oyasi ham ilgari surilmoqda.

Robaxon Maxmudova o‘z Saylovoldi dasturida bo‘xona va soliq imtiyozlarini takomillashtirish hamda imtiyozlarni aniq sohalarga berish tarafdori ekanligiga alohida e‘tibor qaratmoqda.

Buyurtmachi va yetkazib beruvchi o‘rtasida tuziladigan shartnoma chinakam huquqiy vositaga aylantirilishi shart va bu jarayonga hokimiyatning aralashuviga chek qo‘yilishi lozim, deyiladi nomzod dasturida. Shuningdek, nomzod yuzaga kelgan har qanday nizo **faqat sud qarori bilan** yechim topishiga ustuvorlik berish tarafdoridir.

Nomzod iqtisodiy yo‘nalishdagi takliflari doirasida jamiyatda ijtimoiy tenglik o‘rnatish maqsadida **jismoniy shaxslar daromadlariga progressiv soliqlarni joriy etishni** taklif qilmoqda. Bunga asos sifatida yashirin iqtisodiyotning vujudga kelishi bevosita soliq stavkalaridan ham ko‘ra ko‘proq soliq siyosati qanchalik adolatlilik ekaniga bog‘liqligi, ya‘ni soliq siyosati qanchalik samarali bo‘lmasin, soliq stavkasi qanchalik pasaytirilmasin, soliq to‘lovchi undan qochishga intiladi. Progressiv soliq tizimi bugungi kunda **Fransiya, Avstriya, Germaniya, Yaponiya** kabi mamlakatlarda samarali qo‘llab kelinadi.

Prezidentlikka nomzod Robaxon Maxmudovanning Saylovoldi dasturida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni ilmiy asosda tashkil etish, fan va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash yaqin kelajakda O‘zbekistonning agrar sohadagi ulkan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda, qishloq iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda, kambag‘allik muammolarini hal etishda ijobiy natijalar berishiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Nomzod qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish va sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish g‘oyasini ilgari surmoqda. Bu borada qishloq xo‘jaligida sug‘urtalash tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish, jumladan, **“Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urtalash to‘g‘risida”** yangi qonun qabul qilinishi taklif etilmoqda.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, rivojlangan davlatlar tajribasi o‘rganilganida, Ispaniya qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi sohada 42 yillik bo‘y tajribaga egaligi, o‘z o‘rnida ushbu davlatning sug‘urtalash tizimi dunyoning qishloq xo‘jaligi rivojlangan boshqa davlatlarida ham andoza sifatida tan olingani hamda yurtimiz bilan iqlimiy mutanosibligi jihatidan yaqinligi nomzod Saylovoldi dasturida ilgari surilgan g‘oya hayotiyigidan dalolat beradi.

Fransiyada esa “Qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash to‘g‘risida”gi milliy qonun 1984-yilda qabul qilingan. Qayd etish lozimki, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida sug‘urta tizimi birinchi marotaba Fransiyada qo‘llanilgan bo‘lib, 1750-yilda bir nechta fermerlar qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘urtalash bo‘yicha birlashgan. Fransiyada qishloq xo‘jaligi ekinlari va yaylov chorvachiligi bo‘yicha tabiiy ofat natijasida qo‘rilgan zararlarni qoplash uchun “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini kafolatlash Milliy Fondi” faoliyat yuritadi. Fondning asosiy maqsadi milliy va professional birdamlikni amalga oshirish hamda qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi sektori uchun soliq yukini kamaytirishdan iborat.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Maxmudovanning Saylovoldi dasturida mana shunday ko‘plab olinanob va ezuq maqsad-vazifalar, elimlar farovonligiga, mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan yo‘nalishlar belgilangan.

Siz, aziz saylovchilarni “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko‘rsatilgan nomzod — Robaxon Maxmudova uchun ovoz berishga chaqirib qolamiz!

Muhammadjon VALIYEV,
Maqsud QURBONBOYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA “ADOLAT” SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASIDAN NOMZOD ROBAXON MAXMUDOVAGA OVOZ BERING!



HAMKORLIK

SAMARADORLIK, O‘ZARO BIR-BIRINI TUSHUNISH VA AMALIY SA‘Y-HARAKATLAR



Afzal ORTIQOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Iqtisodiy
tadqiqotlar
va islohotlar markazi
bosh ilmiy xodimi

Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda SHHT ulkan geografik hududini va sayyoramiz aholisining qariyb yarmini birlashtirgan dunyodagi eng yirik mintaqaviy Tashkilotga aylandi. Tashkilot davlatlarining umumiy nufusi 3,3 milliard bo‘lib, dunyo aholisining deyarli 42 foizini tashkil etmoqda. SHHT davlatlarining umumiy hududi sayyoramiz quruqlik maydonining 25 foizini, Yevroosiyo qit‘asida esa qariyb 60 foizni egallaydi.

Ayni paytda “SHHT oilasi” uchta qit‘a — Osiyo, Yevropa va Afrikani qamrab olgan. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlarning SHHT bilan u yoki bu formatdagi o‘zaro hamkorlikka qiziqishi ortib bormoqda.

Kechagi majlisida esa Eron Islom Respublikasining SHHT a‘zoligiga qabul qilinishi, shuningdek, Belarus Respublikasining SHHTga a‘zo davlat maqomini olish uchun majburiyatlari to‘g‘risidagi memorandum imzolanganini ham Tashkilot makonida tarixiy bosqichni boshlab berishi, shubhasiz.

SHHT mintaqaviy va global xavfsizlik arxitekturasida mustahkam o‘rin egallab, o‘zini strategik muhim Yevroosiyo makonida barqarorlikni saqlash kafolati sifatida namoyon etmoqda hamda Yevroosiyo kun tartibiga ega bo‘lgan transmintaqaviy tashkilotga aylanayotir.

Shanxay hamkorlik tashkiloti muvaffaqiyatida, faoliyati samaradorligini oshirishda O‘zbekistonning hisssasi juda katta. Mamlakatimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar SHHT nufuzini mustahkamladi.

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarida SHHT ochiq, pragmatik va keng ko‘lamli manfaatli hamkorlik yo‘lini amalga oshirish nuqtayi nazaridan ko‘p tomonlama platforma sifatida har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Prezidenti umumiy xavfsizlik va farovonlik yo‘lida “Samarqand birdamligi” tashabbusini ilgari surdi. Uning maqsadi — bizning umumiy kelajakimizga befarq bo‘lmagan, ixtiloflarga qaramasdan kelishilgan yondashuv va qarorlarni izlashga tayyor, “Samarqand ruhi” tamoyillariga hamfikir bo‘lganlarning

barchasini global muloqotga jalb qilishdir. “Samarqand ruhi” SHHTni tuzishda asos qilib olingan bag‘rikenglik, turli xalqlarning an‘ana va qadriyatlariga hurmat tamoyillari asrlar davomida amalga bo‘lgan hayotiy namunadir.

Ushbu tashabbusni amalga oshirish masalalarini muhokama qilish uchun 2023-yilda siyosiy, jamoatchilik, ishbiarmonlar, akademik va ekspert doiralari nufuzli vakillari ishtirokida Samarqand xalqaro forumi o‘tkaziladi.

Turli shakllarda mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, tovarlar, kapital, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakatlanishini bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratishga ko‘maklashish SHHT faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga kiradi.

O‘zbekiston SHHT doirasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarni, transport-logistika, energetika, sanoat kooperatsiyasi, axborot va telekommunikatsiyalar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, raqamlashtirish, qishloq xo‘jaligi, kambag‘allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish hamda “yashil” iqtisodiyot kabi sohalardagi hamkorlikni kuchaytirish tarafdoridir.

Bunda 2022-yilda SHHTning Samarqand sammitida qabul qilingan a‘zo davlatlar o‘rtasida uzoq muddatli yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomani 2023-2027-yillarda amalga oshirish bo‘yicha keng qamrovli reja muhim o‘rin tutadi. Ushbu hujjat tashkilot doirasida barcha sohalar bo‘yicha amalga oshirilayotgan hamkorlik yo‘nalishlarini jalb qilgan va 120 ga yaqin tadbirni o‘z ichiga olgan.

SHHT doirasida xalqaro transport-logistika sohasida hamkorlikni kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Tashkilot avtomobil transporti sohasi bo‘yicha mustahkam amaliy tajriba to‘plagan va temir yo‘l tarmog‘ida hamkorlikni rivojlantirmoqda. Bu masalalar asosan, ikki va ko‘p tomonlama shartnomalar bilan tartibga solinadi.

Transport sohasidagi hamkorlikning ijobiy natijalaridan biri sifatida 2014-yilda SHHTga a‘zo davlatlar tomonidan “Xalqaro avtomobil tashuvlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish to‘g‘risida bitim” imzolanganini aytish mumkin. Shuningdek, temir yo‘l boshqarmalari rahbarlari uchrashuvlarini o‘tkazish mexanizmini ishga tushirildi. Bundan tashqari, SHHT xalqaro transport-logistika assotsiatsiyasini tuzish taklifi ham katta ahamiyatga ega.

SHHT hududida transport va kommunikatsiya tizimlarining integratsiyasi Osiyo-Tinch okeani, Yaqin va O‘rta Sharq, Fors ko‘rfazi va Yevropa mamlakatlari bozorlariga xavfsiz va eng qisqa vaqtda chiqishni ta‘minlash imkonini beradi.

Bunda “Rossiya — Qozog‘iston —

O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — O‘mon — Hindiston” yo‘lagi Markaziy Osiyoning barcha davlatlarini Yaqin Sharq bozorlari va O‘rtayer dengizi portlariga chiqish imkoniyatini ta‘minlashga qodir. “Toshkent — Andijon — O‘sh — Irkeshtam — Qashg‘ar” yangi transport multimodal yo‘lagi ishga tushirilishi ham muhimdir.

“Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li qurilishi istiqbolli transport loyihalaridan biri. Ushbu tarmoqning qurilishi masofani 900 kilometrga va yuklarni yetkazib berish muddatini 7-8 kunga qisqartiradi.

Mutaxassislar fikricha, yiliga kamida 5 million tonna yuk tashish ushbu temir yo‘l qurilishi xarajatlarini to‘liq qoplashi mumkin. Hozirgi kunda loyihani amalga oshirish ishlari qizg‘in ketmoqda. Ushbu yo‘l “Sharq — G‘arb” yo‘nalishida mavjud temir yo‘li magistralini imkoniyatini kengaytiradi.

“Termiz — Mozori-Sharif — Kobul — Peshovar” va “Kerki — Akina — Andxoy” transport yo‘laklarini ochildish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning Mozori-



Shanxay hamkorlik tashkiloti muvaffaqiyatida, faoliyati samaradorligini oshirishda O‘zbekistonning hisssasi juda katta. Mamlakatimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar SHHT nufuzini mustahkamladi.

Sharifdan Kobul orqali Peshovargacha temir yo‘l qurish tashabbusi Hindiston va Pokistonga Markaziy Osiyo va Yevropa mamlakatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkonini beradi, shuningdek, mintaqadagi bir qator muammolarni hal etishga ijobiy turtki bo‘ladi.

Umuman olganda, ushbu loyihalarining amalga oshirilishi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash, savdo va investitsiyalarni ko‘paytirish SHHT makonida barqaror iqtisodiy o‘shirishni ta‘minlash uchun keng imkoniyatlar ochadi.

SHHTga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik vazifalaridan biri transport sohasida raqamli texnologiyalar va intellektual tizimlardan foydalanishni kengaytirishdan iborat.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlarning transport vazirliklari mutaxassislari fikricha, SHHT mamlakatlari logistika infratuzilmasini raqamlashtirish, masalan, temir yo‘llarning o‘tkazish qobiliyatini 40 foizga oshirishi, shuningdek, tashish narxini 30 foizgacha kamaytirishi mumkin.

SHHTga a‘zo davlatlarning o‘zaro aloqalarini rivojlantirish va samarali transport yo‘laklarini yaratish bo‘yicha hamkorlik

to‘g‘risidagi konsepsiyasi SHHTning Samarqand sammiti doirasida qabul qilinishi hamkorlikning institutsional asoslarini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, SHHT doirasida savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy aloqalarni mustahkamlash va sanoat kooperatsiyasini rag‘batlantirish sohasida hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Samarqand viloyatida tashkil etilayotgan “O‘zbekiston — SHHT” sanoat zonasi yangi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish platformalaridan biri bo‘lib, SHHT mamlakatlari ishbiarmon doiralari o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini rag‘batlantirish dasturini (sanoat, infratuzilma, xomashyo va inson salohiyatini safarbar etish) amalga oshirishning samarali mexanizmiga aylantirish maqsadida tuzilmoqda. Asosiy si, ushbu tashabbus SHHT makonida yuk tashish hajmi o‘shirishni ta‘minlash va Tashkilotning geografik o‘zagi bo‘lgan Markaziy Osiyoni transkontinental Yevroosiyo kommunikatsiyalari chorrahasiga aylantirishga qaratilgan.

muammolarga o‘z vaqtida chora ko‘rish Tashkilotga a‘zo mamlakatlari uchun ustuvor vazifaga aylanib, oziq-ovqat xavfsizligi hamda agrar sohaga oid hamkorlik masalalari esa SHHT doirasida tobora ustuvorlik kasb etadi.

O‘zbekiston oziq-ovqat importiga bog‘liq mamlakat hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligi masalalariga, jumladan, SHHT bilan o‘zaro hamkorlik doirasida ham alohida e‘tibor qaratmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalari SHHTning Samarqand sammitida ham ko‘rib chiqildi. Uning yakunida “Global oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash to‘g‘risida”gi bayonot hamda “Aqli” qishloq xo‘jaligi va agroinnovatsiyalarni joriy etish sohasidagi hamkorlik konsepsiyasi” qabul qilindi.

O‘zbekiston asosiy e‘tiborni hamkorlikning yangi ufqlarini ochish va har bir ishtirokchi mamlakatning foydalanilmagan zaxiralarini ishga solish orqali tashkilotni jadal rivojlantirish mumkin, deb biladi.

SHHT a‘zolari o‘rtasida turizmi rivojlantirish salohiyati ham juda katta. YUNESKO Insoniyatning umumjahon moddiy va nomoddiy merosi ro‘yxatidagi 143 ta moddiy va nomoddiy obyektlar SHHT davlatlariga to‘g‘ri keladi. SHHT doirasida ko‘plab loyihalar va hamkorlik dasturlari, a‘zo davlatlarning xilma-xil madaniyati, madaniy va ijodiy mahsulotlari bilan tanishish uchun yagona turistik makonni yaratish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. SHHT kotibiyati hozirda Butunjahon turistik shaharlar federatsiyasi (BTSHF), UNWTO va boshqa tashkilotlar bilan faol va samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

O‘tgan yili Samarqandda imzolangan turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi bitimga ko‘ra, tomonlar SHHTga a‘zo davlatlarning iqtisodiy va sayyohlik salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, a‘zo davlatlar xalqlarining tarixi, madaniyati, tabiati va an‘analari bilan yaqindan tanishish maqsadida turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga hissa qo‘shadi.

Turizm sohasida hamkorlik kengayishi davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga, o‘zaro do‘stona munosabatlarni mustahkamlashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. SHHTga a‘zo davlatlarning turizm sohasida doimiy hamkorligi esa har tomonlama manfaatlidir.

2021-yilda O‘zbekistonga SHHTga a‘zo davlatlardan 1,86 million sayyoh tashrif buyurgan. 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich 4,94 milliongacha yetib, 2,75 barobar oshgan. Joriy yilda SHHTga a‘zo davlatlardan O‘zbekistonga keladigan turistlar soni yanada ko‘payishi kutilmoqda. Hamkorlikka yangi sur‘at bag‘ishlash uchun 2023-yilni SHHT makonida turizmi

rivojlantirish yili, deb e‘lon qilindi.

SHHT davlatlari O‘zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari qatoriga kirishini alohida aytib o‘tish kerak.

Oxirgi olti yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonning SHHT mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 2 barobar, eksport 1,48 barobar, import 2,48 barobar oshdi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning SHHT davlatlari bilan savdo aylanmasining mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 47 foizdan 51,4 foizgacha ko‘tarildi.

Buni raqamlar orqali ko‘radigan bo‘lsak, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan O‘zbekistonning SHHT davlatlari bilan savdo aylanmasi 21,8 foiz oshib, 25,7 milliard dollarni tashkil qilgan. Eksport esa 16,3 foiz oshib, 8,6 milliard dollarni va import 18,7 foiz oshib, 17,1 milliard dollarni tashkil etdi. SHHT davlatlarining O‘zbekiston umumiy savdo hajmidagi ulushi 44 foizni, umumiy eksport hajmidagi ulushi (oltindan tashqari) 43,42 foizni tashkil qildi. Joriy yilning yanvar-aprel oylarida O‘zbekistonning SHHT davlatlari bilan savdo aylanmasi 8,6 milliard dollarni tashkil etdi. Bu o‘tgan yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 9,1 foizga ko‘p.

Ko‘rinib turganidek, mamlakatimiz yillik tashqi savdo aylanmasining yarmidan ko‘prog‘i SHHTga a‘zo davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu bois, Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash O‘zbekiston uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Yaqinda qabul qilingan SHHTda mintqa ichidagi savdoni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasini kelgusi yillarda ham ushbu sur‘at bilan saqlab qolishga xizmat qiladi. Chunki bu hujjat asosida savdo to‘siqlarini bartaraf etish, texnik reglamentlarni unifikatsiya qilish, bojxona xizmatlarini raqamlashtirish va SHHTga a‘zo davlatlar bozorlariga kirishni soddalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

SHHTga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining Hindistonda bo‘lib o‘tgan kengashida ham O‘zbekiston bir qator aniq takliflarni ilgari surdi. SHHTning yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va transchegaraviy sheriklik kodeksini ishlab chiqish, mintaqaviy savdo va sanoat-texnologik kooperatsiyani rivojlantirish, Tashkilot makonida transport-kommunikatsiyaviy bog‘liqlikni kuchaytirish, “Yashil” kun tartibiga doir masalalar, turizm, madaniy-gumanitar hamkorlik, xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi taklif va tashabbuslar shular jumlasidandir.

Bu takliflar qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi. Bugun ishonch bilan aytish mumkin, mazkur takliflarning amaldagi ifodasi SHHTning xalqaro nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.



HOKIM YORDAMCHILARI

Bu Nurafshon shahridagi Bobur mahallasi aholisini uyma-uy yo‘qlayotgan, ularning turmushi bilan qiziqayotgan, muammolarini hal etishda ko‘maklashayotgan hokim yordamchisi Husniddin Tillaxo‘jayevning har telefon qo‘ng‘irog‘iga javobi.

Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish, daromadli mehnat bilan ular bandligini ta‘minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag‘allikni qisqartirish, mamlakat, viloyat, tuman va shaharlarda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini bevosita mahalla darajasiga tashkil etish maqsadida Respublika Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda qabul qilingan “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi farmoni ushbu mahalla ahli turmushida ham tub birilish yasadi.

Mazkur farmon bilan mahalla boshqaruv tizimida hokim yordamchisi lavozimi belgilandi. Shunday lavozimga



tayinlangan Husniddin Tillaxo‘jayev katta shijoat va ishtiyoq bilan ishga kirishdi. Dastlab mahalla aholisi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirdi. Chunki mahallaning qayerida “puls” qanday urishini bilgach, tashxis qo‘yish ham oson kechadi-da.

Mahalladagi 343 ta xonadonda 1694 nafar aholi yashaydi. Hokim yordamchisi va mahalla fuqarolar yig‘ini mas‘ullarining sa‘y-harakati bilan aholi to‘liq “Onlayn mahalla” elektron platformasiga kiritildi.

Qolaversa, ushbu xatlov yakuniga ko‘ra, mahalla aholisi to‘rt toifaga taqsimlandi. Birinchi toifaga daromadli kam, ishsiz, ammo kasb o‘rganishga, daromad topishga harakat qilayotgan aholi yashayotgan xonadonlar kiritildi. Ular 9 ta ekan.

Ikkinchi toifaga kirgan doimiy daromadga ega va qo‘shimcha daromad topish istagi bor xonadonlar 171 ta chiqdi. Nogironligi va bemor a‘zolari bor, boquvchisini yo‘qotgan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj 25 ta

xonadon uchinchi toifaga kiritildi. To‘rtinchi toifaga kirganlar, ya‘ni o‘ziga to‘q xonadonlar 138 ta ekan ayon bo‘ldi.

Mahalla xonadonlari turmushi bilan yaqindan tanishgan Husniddin Tillaxo‘jayev ularga imkoniyat darajasida yordam berishga ahd qildi. 2022-yilda 136 kishi uning ko‘magi bilan ishli bo‘ldi, 36 kishi esa mavsumiy yumushlarga jalb etildi. Yana 50 nafar odam kasb-hunarga o‘qitilib, hunarli bo‘ldi va doimiy ish bilan ta‘minlandi.

Hokim yordamchisining e‘tiboridan uy bekallari ham chetda qolmadi. Mohlolar Xudoynazarova oddiy uy bekasi edi. Qo‘shimcha daromad topish imkonini borligi bois, unga imtiyozli kredit ajratildi.

— Menga 33 million so‘m 14 foizli imtiyozli kredit ajratilish jarayoni oson kechdi, ortiqcha ovoragarchilik, sarsongarchilik bo‘lmadi. Butun oilamiz nomidan hokim yordamchisiga minnatdorlik bildiraman, — deydi u.

M.Xudoynazarova o‘sha mablag‘ evaziga barpo etgan 3 sotixli issiqxonasida erta ko‘klamda pomidor va bodring yetishtirib bozorga chiqardi. Daromadi ham shunga yarasha bo‘lyapti.

Raqamlarga tayanadigan bo‘lsak, bir yil davomida Bobur mahallasidagi hokim yordamchisining tavsiyasi va ko‘magi bilan 53 ta loyiha uchun 1 milliard so‘m miqdorida kredit ajratildi. Natijada qo‘shimcha 53 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Bundan tashqari, shahar aholi bandligiga ko‘maklashish markazi rahbari Bahridin Karimov bilan hamkorlikdagi ishlar samarasi o‘laroq, mahallaning bir guruh fuqarolari tadbirkorlikka o‘qitildi. Hokim yordamchisi ularning 11 ta loyihasini amaliyotga samarali tatbiq etish uchun 48,8 million so‘m miqdorida subsidiya ajratishga tavsiya bergan. Pirovardida, yetti nafar fuqaro ishli bo‘ldi.

2022-yil mobaynida mahallada 28 ta yuridik tashkilot va 14 ta yakka tartibdagi tadbirkor ro‘yxatdan o‘tgan ham hokim yordamchisining mahalla ahliga qanday qayishayotganini, aholi bilan hamjihatlikda ishlayotganini isbotlab turibdi.

Mahalla idorasida hokim yordamchisi bilan muloqot qilib, ortga qaytar ekanmiz, ichkaridan telefon jiringladi ham Husniddin Tillaxo‘jayevning tovushi eshitildi:

— Husniddinman, mahalladagi hokim yordamchisi...

Otabek ISROILOV,
jurnalist



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

TA'LIMDAGI YANGILANISHLAR

yuksalish yo'lidagi marra

larga yetaklamoqda

Boshlanishi 1-betda



XALQARO ANJUMAN

"Sifatli ta'lim — yangi O'zbekistonning mustahkam poydevori", "Inson kapitali: global muammolar va rivojlanish tendensiyalari" mavzularida o'tkazilgan muloqotda maktabgacha va maktab ta'limiga doir islohotlar mazmuni hamda sohadagi keng o'zgarishlar tahliliga atroflicha o'ttalib o'tildi.

Muxbirimiz anjuman ishtirokchilarining fikr-mulohazalarini yozib oldi.



Aslan IBRAGIM,
Birlashgan Arab Amirliklaridagi
Milliy maktab rahbari, ta'lim bo'yicha xalqaro ekspert (BAA):

— Yurtingiz maktablarida ta'lim sifatini oshirish maqsadida mahalliy va xalqaro ekspertlar ishtirokida Milliy o'quv dasturi yaratilganidan xabardorman. Unga asosan, 420 nomdagi yangi avlod darsliklari yaratilib, Kembrij, Klett nashriyotlari va Gersen universitetining darsliklari mahalliyashtirilmoqda. Ingliz, nemis va rus tili fanlaridan xalqaro doirada tan olingan 79 nomdagi o'quv-metodik qo'llanma va darsliklar amaliyotga tatbiq etilgani o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishida katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ilk bor xalqaro baholash tadqiqotlari (PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS) va indekslarda (Inson kapitali



indeksi — 2020) O'zbekiston umumta'lim muassasalari ishtiroki ta'minlanib, xalqaro reytinglarda mamlakatningizning mavqei yuqorilayotganini kuza-tish mumkin.

Hilola UMAROVA,
maktabgacha va
maktab ta'limi vaziri:

— Har qanday jamiyatning kelajagi ta'lim bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston zamini ikki buyuk Uyg'onish davriga beshik bo'lganini alohida ta'kidlash joiz. Bu hududdan ko'plab daholar yetishib chiqqani dunyoga ma'lum va mashhur. Bugun mana shu buyuk ajdodlarimizga munosib vorislarni tarbiyalash uchun yurtimizda ta'limga katta e'tibor berilmoqda. Zotan, aholisining 50 foizdan ortig'i 29 yoshgacha bo'lgan yoshlardan iborat O'zbekiston uchun esa ta'lim, hech shubhasiz, strategik masaladir.

Bu borada qator yutuqlarga erishgan bo'lsak-da, inson kapitalini rivojlantirish uchun hali qilishimiz zarur bo'lgan ko'plab vazifalar bor. Ularni amalga



oshirishda xalqaro tajriba va hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shuning uchun barcha mahalliy va xalqaro tashkilotlarning yagona platformasi — Mahalliy ta'lim guruhi faoliyati yo'lga qo'yilib, ta'lim islohotlariga doir masalalar birdamlikda hal etilmoqda.

Munir MAMEDZADE,
UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari:

— Konferensiyada O'zbekistondagi ta'lim islohotlari haqida fikr almashdik. Muloqotda, xususan, inklyuziv va sifatli ta'limga urg'u berildi. Bu borada so'nggi yillarda ko'p ish qilindi. Maktabgacha va maktab ta'limiga qamrov kengaydi. Ta'lim sifati, pedagoglarning malakasi oshirildi. O'zbekiston bu rivojlantirish boshlang'ich pallasida turibdi.

Mamlakatimiz bugun tarix chorrahasida turib, ta'lim rivojida yangi marra larni zabt etishga intilmoqda. O'zbekiston hukumati xalqning barqaror rivojlanishi va farovonligi uchun sifatli ta'lim muhimligini anglagan holda o'qitish sohasida katta sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. Biroq bu ishlar xalqaro tashkilotlarning mustahkam hamkorligi va ko'magini talab qiladi. Biz bu jarayonda ishtirok etayotganimizdan mamnunmiz.



MAMLAKATINGIZ BUGUN TARIX CHORRAHASIDA TURIB, TA'LIM RIVOJIDA YANGI MARRALARNI ZABT ETISHGA INTILMOQDA. O'ZBEKISTON HUKUMATI XALQNING BARQAROR RIVOJLANISHI VA FAROVONLIGI UCHUN SIFATLI TA'LIM MUHIMLIGINI ANGLAGAN HOLDA O'QITISH SOHASIDA KATTA SA'Y-HARAKATLARNI AMALGA OSHIRDI.



Stiv KING,
"Cambridge Assessment" tashkilotining Markaziy Osiyo davlatlari uchun ta'lim xizmatlari departamenti direktori (Buyuk Britaniya):

— O'zbekistonda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy usullari yo'lga qo'yilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarning malakasini oshirish borasida ham ijobiy ishlar qilinayotganiga guvoh bo'ldik. Yurtingizda barcha bolalar, jumladan, imkoniyati cheklanganlar uchun ham qulay sharoit yaratishga e'tibor qaratilyapti.

O'zbekistonda ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, o'qitish sifatini oshirish, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash borasidagi ishlar tahsinga loyiq. Shuningdek, ta'lim olish uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratilayotgani ham e'tiborga molik jihat.

Bashir CHANBASHA,
Energetika va yangi materiallar sohasida xalqaro ekspert (Hindiston):

— Ta'lim sohasida O'zbekistonning Global innovatsion indeksdagi o'rini yaxshilaydigan bir qancha aniq yo'nalishlar mavjud. Bular OTMlarning reytingi, xalqaro akkreditatsiya, indekslangan jurnallarda nashrlar sonining ko'payishi va bozor talablaridan kelib chiqqan holda yangi o'quv dasturlarining joriy etilishidir.

Ko'nikmalarga asoslangan ish o'rnlari yaratish va mehnat bozori ehtiyojini ta'minlash universitetlarning eng muhim vazifasidir. Ushbu muammolarni hal qilish universitetlar, sanoat korxonalari, siyosatchilar va tegishli manfaatdor tomonlarni jalb qilgan holda hamkorlikdagi yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot va ishlanmalarni ommalashtirish jarayoni tadqiqotchilar, olimlar va institutlar o'rtasida tadqiqot o'tkazish, bilim almashish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishda global hamkorlikni anglatadi.

Yerik AJULAY,
"Nexus Innovation Hub and Incubator" direktori va asoschisi (AQSH):

— O'zbekistonda ko'plab ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar mavjud. Ushbu tashkilotlar texnologiyalar transferini rag'batlantiradigan va osonlashtiradigan siyosatga tayanishi muhim. Innovatsiyalar va texnologiyalar bozorga chiqarilmasa, ulardan hech kimga foyda kelmaydi.

Qo'shma innovatsion loyihalar orqali davlat-xususiy sheriklikni rag'batlantirish har ikki tomonning boshqa tomon duch keladigan ehtiyoj



va muammolarni tushunishi uchun ajoyib qadamdir.

O'zbekiston yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida biznes inkubator va akseleratorlar yaratishi kerak. Qonun-qoidalarini soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, shuningdek, moliyaviy qo'llab-quvvatlov va rag'batlantirish orqali mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish, yangi g'oyalarni yordamida korxonalar yaratish mumkin. Bu O'zbekistonga salohiyatini to'liq ishga solish, innovatsiyalar sohasida mintaqaviy yetakchiga aylanish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkonini beradi.

YANGI O'ZBEKISTON
HAMKORLIK HAFTALIGI

Metiyu GOLDI-SKOTT,
UNICEFda ta'lim sohasidagi texnik Maslahatchi (Buyuk Britaniya):

— Ta'limning yuqori sifat darajasiga erishish uchun islohot va o'zgarishlardan cho'chimaslik kerak. O'zbekiston bu yo'nalishda qat'iy harakat qilayotganini ko'rib turibmiz. O'qitishning zamonaviy uslublarini joriy etish, o'quv dasturlarini yangilash, sifatli o'quv materiallari ishlab chiqish va ilg'or texnologiyalarni qo'llash sifatli ta'limning ajralmas tarkibiy qismidir. O'zbekiston allaqachon ta'lim va ilm-fan sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Biroq ta'limning qulayligini va o'qitish sifatini oshirish, barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha hamkorlikni davom ettirishimiz kerak.



Vidjay KUMAR,
Massachusetts texnologiya institutining Ta'lim innovatsiya va texnologiyalar departamenti direktori, J-WEL laboratoriyasi asoschisi (AQSH):

— Massachusetts texnologiya instituti "Yangi O'zbekiston" universiteti bilan tayyor o'quv jarayonini tashkil etib berish emas, balki mutaxassislar malakasini oshirish orqali eng ilg'or tajribani joriy etadigan jamoani shakllantirish borasida hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

Fikrimcha, maktab ta'limi borasida ham, eng avvalo, inson kapitaliga, jumladan, pedagoglar malakasini oshirish, ularni xalqaro standartlar asosida baholashga katta e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston aynan shu yo'ldan bormoqda. Misol uchun, vazirlik tizimida pedagoglarni baholashga qaratilgan alohida tuzilma, jumladan, Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tashkil etilgani gapimning isbotidir.



Biz nafaqat ta'limga, balki yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishga ham sarmoya kiritish lozim bo'lgan dunyoda yashayapmiz. Bunda eng muhim jihat pedagogik innovatsiyadir. O'qituvchi ta'limdagi islohotlar markazida tursagina katta yutuqlarga erishish mumkin.

Sardor DONAYEV,
Toshkent davlat texnika universiteti prorektori, fizika-matematika fanlari doktori, professor:

— Jamiyat taraqqiyoti amalga

oshirilayotgan islohotlarning ko'lami va mantig'iga bog'liq. Ta'lim tizimida, jumladan, oliy ta'limdagi islohotlar natijasida yuz bergan o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi, hatto xalqaro maydonda ham yurtimiz obro'-e'tiborini ko'tardi.

Ta'lim tizimini rivojlantirish pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish, innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga joriy etishga jiddiy yondashish bilan birga, professor-o'qituvchilar oyligini oshirish va rag'batlantirib borish zarurligini ko'rsatdi.

Global va milliy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida OTM boshqaruv tizimida transformatsion jarayon kuchayib bormoqda. Ushbu jarayon faqat boshqaruv tizimi bilan cheklanmasdan, OTMlarning barcha funksional yo'nalishlarini qamrab olayotir. Shuni e'tiborga olsak, bugun OTMlar faoliyatini tashkil etish modelida jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda, degan xulosaga kelish mumkin. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida OTMda boshqaruvga oid yo'nalishlarni takomillashtirish oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Risolat MADIYEVA tayyorladi.




Xiromitsu SAKATA,
"KEI Advanced", Inc. Kawaijuku-group" ta'lim tashkiloti direktori (Yaponiya):

— Ta'lim sohasida Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan birga O'zbekistonda ham bir qancha loyihalarni amalga oshiryapmiz. Ulardan

biri matematika fanidan maktab o'quvchilarning bilimni baholashga qaratilgan "Yaponiya uslubidagi akademik yutuqlarni baholash modeli" loyihasidir.

Ushbu loyiha doirasida 40 ta umumiy, 10 ta xususiy va 2 ta Prezident maktabining 8-, 9-, 10-sinf o'quvchilari bilan 4 marotaba test o'tkazdik hamda natijalarni tahlil qilib, tegishli tashkilotlarga taqdim etdik. 2021-yildan beri o'tkazilayotgan loyiha doirasida birinchi va to'rtinchi sinov natijalari orasida katta o'zgarishlar bo'lgani bizni hayron qoldirdi.

Mamlakat rivoji ko'p jihatdan iste'dodli yoshlarni tanlash, ularga to'g'ri yo'nalish berish, qobiliyatini rivojlantirish, intellektual salohiyatini namoyon qilishiga ko'mak bera oladigan ta'lim tizimini yaratishga bog'liq. Ana shunday tizimning yaratilgani bugungi natijalarda yaqqol ko'rinib turibdi.



Ibrohim ABDURAHMONOV,
oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri:

— Islohotlar natijasida ta'lim sifati va qulayligini oshirish, shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash borasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Barcha sohada ilmiy-innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, shuningdek, mamlakatimiz innovatsion salohiyatini shakllantirish va yuksaltirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi.

So'nggi yillarda sezilarli natijalar qo'lga kiritildi. Xususan, O'zbekiston Global innovatsion indeks reytingida 2015-yildagiga nisbatan 40 pog'ona ko'tarilib, 2022-yilda 82-o'rinni egalladi. 2019-2022-yillarda oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar tomonidan qiymati 40,4 million dollarlik 627 ta loyiha tijoriylashtirildi. 31,6 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarildi. 23,6 million dollarlik mahsulot sotildi va 7 million dollarlik xizmat ko'rsatildi.



Mamlakatimizda kreativ iqtisodiyotni shakllantirishda yangi ish o'rni tashkil etishdan iqtisodiy qiymat (kapital) yaratishgacha bo'lgan "tarmoq-hudud-ilmiy/oliy ta'lim tashkilot" uzluksiz ekotizimini rivojlantirish maqsadida Innovatsion rivojlanish strategiyasi qabul qilindi. Unga asosan, 2030-yilga borib O'zbekistonni Global innovatsion indeks reytingida dunyo bo'yicha ilg'or 50 mamlakat qatoriga kiritish belgilab berilgan.

